

UBAYDIY “MAQĀLĀT VA KALIMĀT-I ABYĀT-I ARABI” ASARINING
MAZMUNI VA TEMATIKASI

Turg’unboyev Abdullo Bahtiyor o’gli

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoir Ubaydiyning “Maqālāt va kalimāt-i abyāt-i arabi” asaridagi she’rlarning mazmuni va tematikasi asarda keltirilgan g’azallar, ruboiylar va fardlar misolida ochib berilgan.

Kalit so’z va iboralar: g’azal, ruboiy, fard, munojot, asar, she’r.

Аннотация. В статье рассматриваются содержание и тематика стихотворений в произведении поэта Убайди «Мақālāt ва калимāt-и абйāt-и араби» на примере газелей, рубаи и фардов, упомянутых в произведении.

Ключевые слова и фразы: газель, рубаи, фард, муноджат, произведение, стихотворение.

Annotation. This article describes the content and themes of the poems in the work of the poet Ubaydi “Maqālāt va kalimāt-i abyāt-i arabi” using the examples of ghazals, rubaiyyahs, and fards mentioned in the work.

Keywords and phrases: ghazal, rubaiyyah, fard, munojat, work, poem.

Bu asarni diqqat bilan o’qigan kishi unda munojot, tazarru ruhini darhol sezadi, asarning aksar she’rlarida bu tamoyil ustuvor. G’azallardan bunga misol:

يا خالق الخلائق يا فائق النوايا ليس الإله غيرك في الأرض والسماء
وجه الحبيب في نظر القلب لامع كالشمس في النهار وكالبدر في الدجى
يا معشر الخلائق صلوا وسلموا في الليل والنهار على صاحب الهدى
يا هادى الأناس إليك اهدني رضا واغفره ذنوب عبدك بالرفق والرضا
يغزو بك فرين عبيدي لأجلك فاحفظه في الغزاة وفي الحرب والوغا¹⁰

Tarjimasi: Ey xaloyiqning yaratuvchisi, danaklarni yoruvchi zot, yer-u osmonda Sendan boshqa iloh yo’q. Qalbning nazarida mahbubning yuzi porloqdir. Huddi kunduzgi quyoshdek va qorong’udagi oydek. Ey xaloyiq, kechayu kunduz hidoyat sohibiga salovat va salom yo’llang. Ey insonlarning hidoyatchisi O’zinga tomon meni rozi holda hidoyat qil. Bandangning gunohlarini shafqat va rozilik bilan kechirgin. Udaydiy Sen uchun va Sening yordaming bilan jangga kiradi, uni urshda, jang va to’qnashuvlarda O’zing muhofaza et.

Ruboiylardan bunga misol:

رب اجعلني مظفرا منصورا عبدا حسنا و شاكرا مشكورا
إذ قربني إليك ربي لطفك من أصلك لا تجعلني مهجورا¹¹

¹⁰ Devon. 200-bet.

¹¹ Devon. 205-bet.

20-Oktyabr, 2025-yil

Tarjimasi: Robbim meni muzaffar va mansur qil, yaxshi, shokir-u mashkur qil.

Lutfingla meni o‘zingga yaqin etding, O‘zingdan meni to’sib qo‘ymagin.

Fardlardan bunga misol:

ارحم بحال عبدك واغفر ذنوبه يا خالق الخلائق واستر عيوبه¹²

Tarjimasi: Bandangning holiga rahm et va gunohlarini kechirgin, ey maxluqotlar Xoliqi ayblarini berkitgin.

Shu bilan birga asarda Yaratganga na’t, hamd-u sano o‘laroq yozilgan she’rlarni ham uchratamiz. Bunga g‘azallardan quyidagisi misol bo‘ladi:

حيرني جماله انظر في كماله كل لسان واصف في صفة جماله
أضعفني وفاقه كمثلته اشتياقه أحرقتني فراقه في طلب وصاله
عز و جل ذكره ولا إله غيره حيرة كل عالم من عظم جلاله
من عشق لقاءك يحرقه فراقك كيف يكون حاله من رحم بحاله
طالبك عبيدك منك هو يريدك فأعطه مراده أنت مراد باله¹³

Tarjimasi: Uning jamoli meni hayratga soldi, kamilligiga qaragin, barcha tillar jamoli vasifa charchab ketdi. Unga munosib bo‘lish meni zaiflashtirdi, huddi shunday ishtiyoqi ham, visoli talabida firoqi meni kuydirdi. Zikri aziz va ulug‘ bo‘ldi, Undan o‘zga iloh yo‘q. Jalolining buyukligidan hamma olim hayratdadir. Kim Senga oshiq bo‘lsa, uni firoqing kuydirar, holiga rahm qilganingni holi qanday bo‘lar?! Seni istadi Ubayding, Sendan so‘rovi O‘zing, unda so‘rovini bergin qalbi istagi O‘zing.

Maqolatda payg‘ambarga madh, muhabbat izhori va shafolat so‘rovi o‘laroq yozilgan she’rlar ham mavjud. Shunday g‘azallardan biri:

إني أنا أحبك يا سيد الأنام بين الأنام كنت محبا على الدوام
روحي فداك أنت مرادي و مقصدي يا مقصد الخلائق في عالم المرام
الله و الملائكة كلهم عليك يا أيها الرسول يصلون بالسلام
أنت إليه أقرب من كل أقرب يا أقرب الخلائق في أحسن المقام
الشوق و الفراق هما يقتلانني كيف أكون بينهما حبا للكلام
إني أردت و صلك في النوم و السهر في الليل و النهار و في السعي و القيام
يوم الحساب أنت شفيعي و مخلصي يا مخلص الخواص و يا ملجأ العوام
أصحابك و آلك يا أفضل الرسل خير الأنام في كرم كلهم كرام
بين الأناس أمتك خير أمة بالآية الكريمة في عالم النظام
يرجو يريد منك عبيدي شفاعاة فاشفعه يا شفيع ذنوب بالإحترام¹⁴

Tarjimasi: Ey insoniyat sayyidi men sizni yaxshi ko‘raman, siz insoniyat orasida davomiy mahbub bo‘ldingiz. Ey istaklar olamida xaloyiqning maqsadi bo‘lgan zot, jonim sizga fido bo‘lsin, maqsad-u murodim siz. Ey rasul sizga Alloh ham farishtalar ham salovat va salomlar yo‘llaydilar. Ey eng go‘zal maqomdagi xaloyiqning eng yaqini, siz Unga har qanday yaqindan ham yaqinsiz. Shavq-u firoq meni o‘ldirmoqdalar. Ular ichra gapni qanday sevay? Sizga yetishishni uyquda ham, uyg‘oqlikda ham, kechasi ham, kunduzi ham, harakatda ham, turishda ham istadim. Hisob kuni shafatchim, qutqaruvchim siz, ey

¹² Devon. 206-bet.

¹³ Devon. 202-bet.

¹⁴ Devon. 202-203 betlar.

xoslarni xalos qiluvchi va ommaning boshpana istab boruvchisi. Ey payg‘ambarlarning afzali, sahobalaringiz va ahlingiz oliyjanoblikda insonlarning eng afzalidirlar, barchalari karamli. Insonlar orasida ummatingiz oyati karima bilan nizom olamida eng afzal ummatdir. Ubaydiy sizdan shafokatni umid qiladi, istaydi ey gunohlar shafatchisi uni ehtiromla shafokat qiling.

Ma‘lumki, Ubaydulloxon hukmdor bo‘lgan, qo‘lida kuch, saltanat to‘plangan hamma inson ham asl qiymatlarga sodiq qola bilmaydi. Ubaydiy esa, insonning asl qadr-qiymati mol-u dunyosining ko‘p ozligida emasligi, nasl-u nasabida ham emasligi, balki insonning qadr-qiymati uning o‘rgangan bilimi va odob-axloqi bilan o‘lchanishini asarda alohida ta‘kidlagan. E‘tiborli jihati, Ubaydiy faqatgina ilmning o‘zinigina tilga olmagan, balki sharq madaniyatida o‘ta muhim bo‘lgan odobni unga qo‘shib zikr qilgan. Lekin, bu o‘lchov ulug‘ insonlar, olimlar, fuzalolar nazdida ekanini aytib o‘tgan. Bu fikrga quyidagi fard misol bo‘la oladi:

عند العظام مجدك بالعلم والأدب لا بالكنوز وبالأصل والنسب¹⁵

Tarjimasi: Buyuklarlar nazdida qadring xazinalar, nasl-u nasabing bilan emas, ilm va odob bilandir.

Asarda Ubaydiyning yurtni boshqarishda adolatga qanchalik e‘tibor bergani, buni naqadar ahamiyatli ish ekanini yaxshi anglashi ham namoyon bo‘ladi. Adolat qilish uchun xalq bilan muloqot va munosabat o‘rnatish kerakligini, ularning holidan boxabar bo‘lish adolatga yo‘l ekanini alohida ta‘kidlab qisqagina ibora bilan bu ulkan mazmunni yoritib bergan. Quyidagi fard so‘zimizga misol bo‘ladi:

وصل الخلق عدل ساعتك نور الليل نور طاعتك¹⁶

Xalq vasli adl soating, tunning nuri nuri toating.

“Voslun” – so‘zi bog‘lash, munosabat o‘rnatish, ma‘nolarini beradi. Shunga ko‘ra, Ubaydiy: “Xalq bilan aloqa o‘rnatgan, munosabatni bog‘lagan vaqting bu seni adolat qilgan vaqting, demoqda. Chunki, xalqining holidan bexabar, ulardan aloqani uzib adolat qilish imkonsiz ish.

Qadimdan faylasuv, olim-u fuzalolar, shoirlar hamma e‘tibor qaratgan, u haqida so‘z yuritgan mavzulardan biri bu umr masalasi, uning tez o‘tishi kabi jihatlar bo‘lgan. Ubaydiy bu asarda ham quyidagi fard orqali umrning tezligini shamolga qiyos qilgan, hayot to‘xtamasdan o‘limga qarab ketayotganini ifoda etgan:

ومر العمر كالريح عاجلة يدوم بلا مهلة إلى العدم¹⁷

Tarjimasi: Umr shamol kabi tez o‘tib ketdi, toxtovsiz yo‘qlik tomon davom etyapti.

Ubaydiyning ba‘zi she‘rlari mazmun jihatidan ixvoniyyotga o‘xshaydi. Ixvoniyyat – birodarlik, do‘stlik, pand-nasihat mavzuidagi she‘rlar bo‘lib, ba‘zan shoir o‘z do‘stiga maslahat beradi, sabrli va chidamli bo‘lishga chaqiradi, uning hursandchilik va qayg‘ulariga

¹⁵ Devon. 206-bet.

¹⁶ Devon. 206-bet.

¹⁷ Devon. 208-bet.

sheriklikni izhor qiladi, uni yomonlikdan qaytarishga urinadi...¹⁸ Bunga misolni quyidagi g’azalda ko’rishimiz mumkin:

أيها العشاق إنني لا أرى غير حب والشتياق في الهوى
اطلبوا الله العظيم كلکم واذکروه في الخلاء والملا
لا حفيظ غير حق يا عباد اعلموا فالله خيرا حافظا
قد وقعنا في الذنوب غفلة يا إله العالمين اغفر لنا
¹⁹إن تكن وصل الحبيب طالبا يا عبيد الله فاسئل بالدعاء

Tarjimasi: Ey oshiqlar men havoyi nafsga muhabbat va ishtiyoqdan boshqa narsani ko’rmayapman. Buyuk Allohni barchangiz talab qiling, Uni xoli holingizda ham odamlar orasida ham zikr eting. Haqdan boshqa muhofaza qiluvchi yo’q ey bandalar, bilingki Alloh eng yaxshi asrovchidir. Darhaqiqat g’afolat bosib gunohlar sodir etdik, ey olamlar Robbisi bizni kechirgin. Agar Mahbubning vaslini istasang, ey Ubaydulloh duo birla so’ragin.

Ubaydiyning hayoti janglarda o’tgan, jang esa hiyla, kuchli strategiya, aql-zakovat talab qiladi. Shu bilan birga urushning ham qonun-qoidalari borki, ularni hamma birdek tan oladi, hurmat qiladi. Ubaydiy yurtlarni zabt etish uchun insonga rushd, aql-zakovat va to’g’rilik kerakligini uqtiradi. Quyidagi fard bynga misol bo’ladi.

فتحت البلاد لأهل الرشاد ويأتيك مال بمال البلاد²⁰

Tarjimasi: Yurtlar to’g’rilar uchun zabt bo’ldi va karvon senga yurtlarning molini keltirdi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Ubaydiyning maqolat va kalimat abyati arobiy asari Yaratganga madh, hamd-u sano, munojot, payg’ambarga maqtov, yurtni boshqarishdagi adolatning o’rni, ilm va odobning ahamiyati, umrning o’tishiga e’tibor kabi ko’plab mavzular haqida hikmat va ma’noga boy she’rlardan tashkil topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat-ad-dahr fi mahosin ahl-asr. -Toshkent.1976.
2. Ubaydulloxon. Maqalat va kalimat-i bayati-i arabi qo’lyozmasi.

¹⁸ Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat-ad-dahr fi mahosin ahl-asr. -Toshkent. 1976. 40-bet.

¹⁹ Devon. 201-bet.

²⁰ Devon. 206-bet.